



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY STATISTIKA QO'MITASI

2025- yil "18" aprel

QAROR 4 -son

Toshkent sh.

Korxona va tashkilotlar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish va sotishga yo'naltirilgan xarajatlar tarkibining bir martalik tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o'tkazish tartibini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025- yil 24- fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-75-son qaroriga muvofiq, milliy hisoblarning resurslar va ishlatilish jadvallarini tuzish bo'yicha ilg'or xorijiy statistika amaliyotini inobatga olgan holda, statistika uslubiyotini takomillashtirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi qaror qiladi:

1. Korxona va tashkilotlar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish va sotishga yo'naltirilgan xarajatlar tarkibining bir martalik tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o'tkazish tartibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024- yil 21- oktabrdagi "Korxona va tashkilotlar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish va sotishga yo'naltirilgan xarajatlar tarkibining bir martalik tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o'tkazish tartibini tasdiqlash to'g'risida"gi 175- son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

3. Mazkur qaror tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Rais

B. Hamrayev